



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba’zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

UBAYDIY IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARI
FOLKLORE TRADITIONS IN UBAYDI'S WORK

Dilorom HAYITBOYEVA,
TOSHDO 'TAU tayanch doktoranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UJKJ4535

Annotation. *The article examines the use of genres characteristic of folk oral literature in Ubaydi's lyrics and genres such as stable compounds, proverbs, and proverbs, which help to ensure folkness and serve to prove ideas, in the composition of Turkic rubaiyats.*

Key words: *divan, folklore, yor-yor, stable compound, irsol ul-masal*

XVI asr o'zbek adabiyotining, xususan, Buxoro adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakili Ubaydullaxon (Ubaydiy) turkiy, arabiy hamda forsiy tillarda birday ijod qilgan shoir hisoblanadi. Zimmasida xonlik vazifalari bo'lishiga qaramay, ijod uchun alohida vaqt ajratadi. Uchta tilda devon tarkib qiladi, diniy-tasavvufiy, falsafiy ruhdagi bir qancha asarlar ham yozadi.

Ubaydiy mumtoz adabiyotning g'azal, ruboiy, hikmat, tuyuq, qit'a, tarje'band, noma kabi janrlarida qalam tebratish bilan birga, turkiy devoni tarkibiga xalq og'zaki ijodi janri bo'lgan yor-yordan ham ikkita kiritadi. 1994-yil A.Hayitmetov Ubaydiy lirikasidan namunalarni "Vafo qilsang" nomi bilan ilk bor ilm ahlini tanishtiradi. Ammo devon tarkibiga kiritilgan yor-yorlar masnaviy nomi ostida berilgan. Bunga uning masnaviy shaklida qofiyalangani va ikkilikda yozilganligi asos qilingan. Shu vaqtgacha hech qaysi ijodkor o'z devoniga yor-yor kiritmagan. Xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib kirilgan ushbu yor-yorlar Ubaydiyning novatorligi va yutug'idir.

*Qoyinini davlati yanga erur, yor-yor,
Izzati-yu hurmati yanga erur, yor-yor.*

Qoyinini yangasin olg'usidir, yor-yor,

Oy yuzingga ko'zlarin solg'usidir, yor-yor. [Ubaydiy. Devon. 36-b.]

Yana bir yor-yori misralar o'ynoqligi va kelinchakning husn-u tarovatiga qaratilganligi bilan birinchisidan farq qiladi.

*Sarv qadlar sarvari gulchehradur, yor-yor,
Dilrabolar dilbari gulchehradur yor-yor.*

*Gulchehralar birla bog' gulshan erur, yor-yor,
Gulshan aro siz mudom gulxan erur, yor-yor.*

Gulchehralar isidin to'ldi jahon, yor-yor,

Boshdin-oyoq muattar bo'ldi jahon, yor-yor. [Ubaydiy. Devon. 36-b.]

Shoir ijodida diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik mazmundagi ijod namunalari yetakchi bo'lishiga qaramay, yor-yor kabi ko'tarinki kayfiyat beruvchi janrda ham qalam tebratgani tahsinga sazovor. Yuqoridagi yor-yorlar Ubaydiyning mumtoz janrlardan

tashqari xalq og'zaki ijodining namunalarini yaratishda ham mahorat egasi ekanligining yaqqol dalilidir.

Ubaydiy lirikasining yetakchi janrlaridan biri ruboiy bo'lib, shoir ruboiylari nafaqat mavzu doirasining kengligi, g'oyaviy mohiyatining chuqurligi bilan, balki badiiyatining mukammalligi bilan ham ajralib turadi. Ubaydiy ruboiyotida shoirning so'z tanlashda hech qiynalmaganligi ko'rinib turadi. Bu shoirning so'z zahirasi nihoyatda kengligidan darak beradi. Ruboiylarda Ubaydiy so'zlarni o'z maqsadi yo'lida turli ko'rinishlarda ishlata olgan. Ularda folklor unsurlari va janrlaridan ham samarali foydalangan.

Ruboiylarning xalqchilligini ta'minlab beruvchi va unga joziba baxsh etuvchi unsurlardan biri barqaror birikmalar bo'lib, unga xalq tilidan olingan naqlar, maqol va iboralar misol bo'la oladi. Ular lirik qahramon kechinmalarini ifodalashda, fikrni dalillashda qo'l keladi.

*Farzona kishi bu dahr aro go'sha tutar,
Vahdat mayidin ko'ngli tilagancha yutar.*

O'tkarma g'am-u mehnat ila umrungni,

Dunyo deganing ko'z yumub-ochquncha o'tar. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 43-b.]

Ruboiy poetikasining eng muhim jihatlaridan biri uning ichki tuzilishi, misralar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish, izchillik, ichki yaxlitlik masalasidir. Ubaydiy ham misralararo mantiqiy bog'lanishga e'tibor qaratgan. Bunda, albatta, keltirilgan xalq iboralarining alohida o'rni bor. Ruboiylarga kiritilgan xalq naqlari o'zgacha ruh va joziba baxsh etib turibdi.

Og'rig' kishiga sog' kishi qoyilmastur,

Ozurda aning xotirini qilmastur.

Tengrisi bila o'zi bilur holinikim,

Og'rig' kishining holini sog' bilmastur. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 61-b.]

Ushbu ruboiyda ilgari surilgan fikr ayni bugungi yashab turgan kunimizga ham mos. "Tanasi boshqa dard bilmas" deganlaridek, ba'zan yaqinlarimiz va atrofimizdagilarning holidan xabar olmaymiz yoki ulardan yordamimizni ayaymiz.

Ko'ngluma yetkursa alam – O'zi bilur,

Yo jonima qilsa sitam – O'zi bilur.

Mendin ne so'rarsiz: ne qilur, ne qilmas?

Bilmon na qilar, ne qilsa ham – O'zi qilur. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 41-b.]

El ko'blugini ko'zga necha ilgaysiz,

Yolg'uz kishidin ham necha kesilgaysiz.

Yolg'uz deb oni kesilgaysiz ondinkim,

Yolg'uzning erur yori Xudo – bilgaysiz. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 66-b.]

Xalqimizda: "Yolg'izning yori – Xudo", degan naql bor. Ruboiyda shu naql asos qilib olingan bo'lib, xalqning ko'pligini ilg'ab olasiz, birga oqim bilan suzishga harakat qilasiz, lekin yolg'iz kishini, ya'ni biror yordamga muhtojni ko'rganda miq etmaysiz, qo'l qovushtirib turasiz degan ma'no yotibdi. Ruboiyning so'nggi misrasi ushbu fikrlardan kelib chiqib xulosalangan.

Barcha janrlarda keltirilgani kabi ruboiyda ham badiiy san'atlardan "ko'p va xo'p" foydalanish imkoniyati mavjud. She'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi. [Hojjahmedov A. 1998: 4]

Shunday san'atlardan biri **irsoli masal bo'lib**, bu maqol keltirish san'atidir. Ubaydiy ruboiylarida keltirilgan maqollar ruboiy mazmuniga singib ketish bilan birga, uning ohangiga muvofiq bir uyg'unlik hosil qilgan:

Dindin evurib yuzungni, yonmish bo'lma,

Murtad yanglig' anga to tonmish bo'lma.

Kofirlarga ishonmakim, bor masal:

Otang kofir bo'lsa, ishonmish bo'lma. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 34-b.]

Desam, sen emishsen manga o'tun solg'on,

Jonimni jafo birla tanimdim olg'on.

Tonib, menga derki, men emon, bor bu masal:

Ko'z ko'rgoni – chin, quloq eshitgon – yolg'on. [Ubaydiy. Diydor orzusi. 94-b.]

Ikki xil mavzuda yozilgan yuqoridagi ruboiylardagi maqollar, undan oldin berilgan fikrlarni isbotlash va dallilash uchun ayni o'rinda keltirilgan. "Otang kofir bo'lsa, unga ishonma" maqoli murtad kishining har bir amali-yu turish-turmushi yolg'on. Dinidan voz kechgan kofir otang bo'lsa ham uning so'zlariga quloq osma, ishonma deb aytish o'z o'rinda jasorat va din yo'lidagi g'azotni talab qiladi. "Ko'z ko'rgoni – chin, quloq eshitgon – yolg'on" maqoli bugungi kunda "Ko'zing bilan ko'rib, qo'ling bilan ushlab ko'rganingga ishon" degan naqlga to'g'ri keladi.

Ubaydiy badiiy san'atlardan unumli foydalanish bilan ruboiylarni naqadar yuksaklikka ko'targani bilan birga, poetik mahoratini ham oshirishda xizmat qilgani shoirning yutug'idir. Ubaydiy ruboiylarida qo'llangan she'riy san'atlarning miqdori talay bo'lib, ular orqali ko'zlangan maqsad o'sha davr va kelajak uchun doim ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Убайдий. Дийдор орзуси. Нашрга тайёрловчи Очилов Э. – Т.: Шарқ, 2007.
2. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣй санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.

